

Sana: _____

Fan: O`zbekiston tarixi

Sinfi: 7 _____

Mavzu: Kirish.

Mavzu: Kirish
Mavzuga oid tayanch tushunchalar: kadivar, kshatriylar, vayshi
Soatlar soni: 1 soat
Mavzuning qisqacha ta`rifi:
O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:
Dars turi: Yangi bilim beruvchi
Metod: suhbat, tushuntirish, "Savol-javob" metodi, "Jadval texnologiyasi", "Tadqiqotlar yoki loyixa texnologiyasi", "Rasmlarda aks etgan tarix"
Shakl: jamoa, guruhda ishlash
Jihoz: I.A.Karimov "Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch" asari darslik, siyosiy xarita, tarqatma, rasmi ko`rgazma, slyd, kompyuter.
Nazorat: o`quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
Baholash: O`quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e`lon qilinadi.
Darsning maqsadi
Maqsadlar:
Ta`limiy maqsad: -o`quvchilarga O`rta asrlar tarixi haqida ma`lumot berish;
Tarbiyaviy maqsad: - o`quvchilargavatanimiz va o`zbek xalqining o`rta asrlarda boshidan kechirgan g`oyat murakkab va mashaqqatli hayoti haqida tushuncha berish va bundan saboq olishni o`rgatish;
Rivojlantiruvchi maqsad: -o`quvchilarni dunyoqarashini, nutqini, fikrlash qobiliyatini, shakllantirish.
Tayanch kompetensiyalar:
Kommunikativlik o`z fikrini og`zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzu:dan kelib chiqib savollarni mantiqan to`g`ri qo`ya olish va javob berish;
Milliy va umummadaniy umumbashariy ahamiyatga ega bo`lgan qadriyatlarini (urf odatlar, marosimlar, milliy madaniy an`analar va h.k.) hurmat qilish; o`zgalarga nisbatan mehmuruvvat, saxiylik, diniy e`tiqodi, milliy hususiyatlari, an`ana va marosimlarini hurmat qilish; jamiyatda o`rnatilgan odobaxloq qidalarga rioya qilish
O`z-o`zini rivojlantirish shaxs sifatida doimiy ravishda o`z-o`zini rivojlantirish, ma`naviy va intellektual kamolotga intilish; o`z hatti-harakatini adekvat baholash, o`zini nazorat qila bilish, halollik, to`g`rilik kabi sifatlariga ega bo`lish.
Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo`lish hamda foydalanish tarixda yil xisobini o`qiy olish, tarixiy darvlarga oid chizmalarni o`qiy olish, rim raqamida yozilgan raqamlarni o`qiy oladi. miloddan avvalgi, era, milodiy yillar o`rtasidagi farqalarni matematik amallar bilan yecha oladi.
Fanga oid kompetensiyalar:
<ul style="list-style-type: none">Tarixiy voqeilikni tushunishvauni mantiqiy izchillikda tushuntira olish kompetensiyasi. tarixiy davrlar va -yillarni ajrata oladi, tarixiy hisobini tushuntira oladi; mazkur davrni o`rganish orqali o`quvchilar tarix fanining o`rganilayotgan davriga oid tarixiy atamalar mazmunini biladi; Tarixiy shaxslar haqida ma`lumot bera oladi, tarixiy sanalarda ro`y bergan voqealar haqida ma`lumot bera oladiTarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi. Tarixiy illustrasiyalar asosida kichik hikoyalar tuza oladi, tarixiy joylarni xaritadan ko`rsata oladi

Darsning blok sxemasi:

№	Darsning qismlari	Belgilangan vaqt.
1.	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2.	O`tilgan mavzuni takrorlash	12 daqiqa
3.	Yangi mavzu bayoni	14 daqiqa
4.	Mustahkamlash	12 daqiqa
5.	Baholash	2 daqiqa
6.	Uyga vazifa	2 daqiqa

I.Tashkiliy qism: Salomlashish, davomatni aniqlash, sinf tozaligini kuzatish.

II.O`tilgan mavzuni takrorlash: O`quvchilarning 7-sinfda olgan bilimlari sinab ko`riladi.

1.Qadimgi tarixchilar O`zbekistonning ayrim viloyatlarini qanday tariflab kelganlar?

2.Engqadimgi davlatlarning nomlarini ayting.

3.Qadimda o`lkamizda qaysi xalqlar yashagan?

4.Mil.avv I ming yillikda ota-bobolarimiz qanday hayot kechirgan?

5.Miloddan avvalgi I mingyillikda ota-bobolarimiz qaysi bosqinchilarga qarshi kurashgan?

Faol o`quvchilar baholanib boradi.

III. Yangi mavzu bayoni:

Vatanimiz O'zbekiston va o'zbek xalqi olamshumul voqealar- ga boy qadimiy tarixga ega. Turon, Turkiston va Movarounnahr nomlari bilan shuhrat topgan bu mamlakatning va o'z mehnati bilan uni obod etgan o'zbek xalqining o'tmishi g'oyat qiziqarli va saboqlidir.

Siz ushbu darslikda IV-XVI asrlar davomida Vatanimiz tari- xida kechgan voqealar haqida bilib olasiz. O'n ikki asrlik davr- ni qamragan bu tarixiy bosqichda, avvalo, umumturk qavmlari safida «o'zbiy» va «o'zbek» atamaları bilan ulug'langan dono daholar yo'lboshchiligida mehnatkash va erksevar o'zbek xalqi shakllandi.

«O'zbek» - qabila begi, hukmdor ^

Ajdodlarimiz kanallar qazib, dasht-u biyobonlarga suv chiqar- dilar, qo'riq yerlarni bog'-u bo'stonga aylantirdilar. Dehqonchi- lik, chorvachilik va hunarmandchilik rivojlandi. O'tloq vohalar o'rnida qishloq va shaharlar qad ko'tardi. Ular ilm-u ma'rifat va kasb-hunarlarining markaziga aylandi. Tasviriy san'at, musiqa, me'morchilik rivoj topib, o'ziga xos madaniyat yuzaga keldi.

Dehqonchilik vohalarida dastavval voha hokimlari, so'ngra esa Eftallar, Turk xoqonligi, Somoniylar, Qoraxoniylar, Xo- razmshohlar, Amir Temur davlati kabi yirik davlatlar hukm surdi. O'rta asrlarda yuzaga kelgan ushbu davlatlar mazkur hudud aholisining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy ha- yoti rivojiga ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda «Qishloq hokimi» deb atalgan katta yer egasi - «dehqon»lar va ularning ekinzorla- rida ishlovchi yersiz «kadivar»lar, ya'ni korandalar shakllan- di. Yerga, suvga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Yerda ishlash va unda qo'shchilarni ishlatish tartiblari o'zgardi. Meh- natkashlar ustidan zulm kuchaydi, ijtimoiy hayotda tabaqalanish yanada keskinlashdi.

Yurt boshiga tushgan og'ir va musibatli damlarda erksevar xalqimiz jasoratini ona-Vatan mudofaasi yo'lida o'zini f

ido qil- gan Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik va mashhur shayx Naj- middin Kubro, Mahmud Torobiy, Amir Temur kabi vatanparvar- lar timsolida bilib olasiz.



Xullas, darslikda Vatanimiz va o'zbek xalqining o'rta asrlarda boshidan kechirgan g'oyat murakkab va mashaqqatli hayot tarixi bayon etiladi. Unda siyosiy voqealarning yoritilishi jarayonida xalqimizning bunyodkorlik faoliyati, o'ziga xos madaniyati va e'tiqodi hamda Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbati va sadoqatiga bag'ishlangan sahifalarni o'qib, shunday mo'tabar xalqning vorisi ekanligimizdan qalbingiz faxrga to'lib boradi. Chunki mamlakati- miz Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek «O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi... Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emas»

IV. Mustahkamlash:

1. Mazkur sinfdan qaysi davrlar o'qitiladi?
2. Tarixni o'rganishdan maqsad nima?
3. "Aytgin do'stim nima qildik Vatan uchun" mavzusida fikr bildiring?

V. Baholash: Darsda faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi.

VI. Uyga vazifa:

“Vatanga muhabbat tuyg`usi” mavzusida hikoya tuzib keling.

O`T.I.B.D.O` _____

Sana: _____

Fan: O`zbekiston tarixi

Sinfi: 7 _____

Mavzu: Ijtimoiy-iqtisodiy o`zgarishlar.

Mavzu: Kirish
Mavzuga oid tayanch tushunchalar: Dehqon; Kashovar; Kadivar; Chokar
Soatlar soni: 1 soat
Mavzuning qisqacha ta`rifi: O`zbekiston tarixi darsi nimalarni o`rgatishi haqida, XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida o`zbek xonliklari tagdirida yuz bergan tub o`zgarishlar haqida Rossiya imperyasi bosqini haqida, ma`rifatchilik harakatlari haqida ma`lumot beradi;
O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi: Dars turi: Yangi bilim beruvchi Metod: suhbat, tushuntirish, "Savol-javob" metodi, "Jadval texnologiyasi", "To`g`risini top" Shakl: jamoa, guruhda ishlash Jihoz: darslik, multimedialiilovalni disk, ko`rgazmavatarqatmamateriallar. Nazorat: o`quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi. Baholash: O`quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e`lon qilinadi.
Darsning maqsadi
Maqsadlar: Ta`limiy maqsad: -O`quvchilarga o`rta asrlarda yerga egalik qilish munosabatlari, shakllari, ijtimoiy iqtisodiy o`zgarishlar haqida tushuncha berish; Tarbiyaviy maqsad: - O`quvchilarni o`zlikni anglash, mustaqillikni qadrlash, uni asrab-avaylash ruhida tarbiyalash Rivojlantiruvchi maqsad: -o`quvchilarni dunyoqarashini, nutqini, fikrlash qobiliyatini, shakllantirish. Tayanch kompetensiyalar: <ul style="list-style-type: none">• O`z-o`zini rivojlantirish kompetensiyasi: shaxs sifatida doimiy ravishda o`zo`zini rivojlantirish, jismoniy, ma`naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intiladi• Milliy va umummadaniy kompetensiya: Vatanga sadoqatli, insonlarga mehroqibatli hamda umuminsoniy va milliyqadriyatlarga e`tiquodli bo`lishga o`rganadi Fanga oid kompetensiyalar: <ul style="list-style-type: none">• Tarixiy voqeiylikni tushunish va uni mantiqiy izchilikda tushuntira olish: O`zbekiston tarixiga oid davr va yillar hisobini biladi. Hijriy yilni milodiyga, milodiy yilni hijriy yilga o`gira oladi, tarixiy va geografik makon, tarixiy davr haqida ma`lumot bera oladi

Darsning blok sxemasi:

№	Darsning qismlari	Belgilangan vaqt.
1.	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2.	O`tilgan mavzuni takrorlash	12 daqiqa
3.	Yangi mavzu bayoni	14 daqiqa
4.	Mustahkamlash	12 daqiqa
5.	Baholash	2 daqiqa
6.	Uyga vazifa	2 daqiqa

I.Tashkiliy qism: Salomlashish, davomat aniqlanadi, sinf tozaligi kuzatiladi, o`quvchilar bugunning Jahonda va O`zbekistondagi siyosiy yangiliklari bilan tanishtiriladi.

II.O`tilgan mavzuni takrorlash: O`qituvchi o`tilgan darsni uyga vazifasini tekshiradi, savollar beriladi.

- 1.O`rta asrlar tarixi qaysi davrlarga bo`linadi?
- 2.Qaysi davrdan keyin ilk o`rta asrlar boshlanadi?
- 3.Ilk o`rta asrlar tarixi qaysi davrlarni o`z ichiga oladi?
- 4.O`zbekiston tarixida ilk o`rta asrlar qaysi asrdan boshlanadi?
- 5.IX-XV asrlar O`rta Osiyo tarixida nima deb ataladi?
- 6.O`rta asrlar tarixi qanday manbalar asosida o`rganiladi?
- 7.Qadimgi shahar yodgorliklaridan qaysilarini bilaiz?

Faol o`quvchilar baholanib boradi.

III.Yangi mavzu bayoni: Reja: 1.Dehqonlar va ular xo`jaligidagi hayot.

2. Qishloq jamoalarining tabaqalanishi

Qadimgi Turon diyorida zamonasining buyuk davlatlaridan Qang' davlati va Kushon podsholigi ravnaq topgan davrda yuksalish boshlangan edi. Bu siljishlar oqibatida mamlakat aho- lisining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotida muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Shaharlarning soni ko'paydi va hududi kengaydi. Shahar ilk o'rta asrlardan boshlab hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniy hayotning markaziga aylandi.

Vohalarda yirik sug'orish tarmoqlari qazilib, sug'orma dehqonchilik maydonlari kengaydi. Suv tegirmoni, chig'ir va charx- palak kabi suv inshootlari kashf etildi. Oqar suv sathidan bir- muncha balandlikda joylashgan maydonlarga suv chiqarib obod etildi. Ziroatchilikda g'allakorlik, sholikorlik va polizchilik bilan bir qatorda paxtachilik va bog'dorchilik maydonlari kengaydi. Ekin maydonlarini sug'orish va ishlov berishning takomilla- shuvi tufayli aholi dehqonchilikdan mo'l hosil oladigan bo'ldi.



Shaharlarda aholining gavjumlashuvi, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning rivoj topishi bilan qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj ortib bordi. Natijada mamlakatning iqtisodiy hayotida xomashyo yetkazuvchi qishloqlarning nufuzi o'tarildi. Bir tomondan, yerga, ziroatkor maydonlarga bo'lgan munosabat, ularga egalik qilish shakli asta-sekin o'zgara boshla- di. Ikkinchi tomondan esa, o'troq ziroatkor aholi bilan chorva- dor qabilalar o'rtasidagi aloqalar rivojlandi. Mamlakatning dasht va tog'oldi mintaqalarida yashovchi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholining o'troq hayot tarziga o'tishi kuchaydi. Oqibatda dehqonchilik uchun yaroqli obikor yerlarga bo'lgan ehtiyoj tobora oshib borishi natijasida qo'riq va bo'z yerlarga suv chiqarilib, katta-katta ekin maydonlari barpo etildi.

Sarkorlar o'zlariga tegishli yer maydonlarini sug'orish tarmoqlarining yuqori qismidan, ayniqsa, to'g'on boshi atrofi- dan ajratib oladilar. Bu yo'l bilan ular suvdan dehqonchilikda bemalol foydalanish, suv taqsimotini nazoratga olib, qishloq aholisi ustidan o'z ta'sirini o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu tariqa ular ziroatkor aholi ustidan hukmronlik qila boshlaydi. O'sha zamonda ular **dehqonlar** deb atalgan.

IV. Mustahkamlash: O'quvchilar atamalarga izoh beradilar

Dehqon (qishloq hokimi) - ... Kashovarz - ...

Kadivar - ... Chokar - ...

Objuvoz - ... Moyjuvoz - ...

Iqtidorli o'quvchilarga alohida topshiriq beriladi.

1. "Dehqon"larning shakllanish jarayonini ko'rsating. 2. Dehqonchilikdagi yutuqlarni ko'rsatib bering.

Faol o'quvchilar va iqtidorli o'quvchilar baholanadi.

V. Baholash: Darsda faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi.

VI. Uyga vazifa: 1-mavzu savollariga javob yozish.

1. Dehqonchilikda qanday yutuqlar qo'lga kiritilgan?
2. Qanday omillar qishloqlar nufuzining ko'tarilishiga sabab bo'lgan?
3. Nima sababdan qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirishga ehtiyoj kuchaydi?
4. Dehqonlar va kadivarlar tabaqasi qay tariqa shakllandi?
5. Kashovarzlar kim, ular haqida nimalarni bilib oldingiz?

Mavzuning asosiy mazmunini so'zlab berish.

O`T.I.B.D.O` _____

Sana: _____

Fan: O`zbekiston tarixi

Sinfi: 7 _____

Mavzu: Ilk o`rta asrlar davlatlari.

Mavzu: Ilk o`rta asrlar davlatlari.
Mavzuga oid tayanch tushunchalar: Afrig`iylar. Xioniylar. Kidariylar. Soatlar soni: 1 soat
Mavzuning qisqacha ta`rifi: O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi: Dars turi: Yangi bilim beruvchi Metod: suhbat, tushuntirish, "Savol-javob" metodi, "Jadval texnologiyasi", "Tadqiqotlar yoki loyixa texnologiyasi"; "Rasmlarda aks etgan tarix" Shakl: jamoa, guruhda ishlash Jihoz: I.A.Karimov "Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch" asari darslik, siyosiy xarita, tarqatma, rasmi ko`rgazma, slayd, kompyuter. Nazorat: o`quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi. Baholash: O`quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e`lon qilinadi.
Darsning maqsadi
Maqsadlar: Ta`limiy maqsad: -O`quvchilarni ilk o`rta asr davlatlari bilan tanishtirish ularni ijtimoiy iqtisodiy munosabatlari, yerga egalik qilish munosabatlari haqida tushuncha berish; Tarbiyaviy maqsad: - O`quvchilarni o`zlikni anglash, mustaqillikni qadrlash, uni asrab-avaylash ruhida tarbiyalash Rivojlantiruvchi maqsad: -o`quvchilarni dunyoqarashini, nutqini, fikrlash qobiliyatini, shakllantirish. Tayanch kompetensiyalar: Kommunikativlik o`z fikrini og`zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzu:dan kelib chiqib savollarni mantiqan to`g`ri qo`ya olish va javob berish; Milliy va umummadaniy umumbashariy ahamiyatga ega bo`lgan qadriyatlarini (urf odatlar, marosimlar, milliy madaniy an`analar va h.k.) hurmat qilish; o`zgalarga nisbatan mehmuruvvat, saxiylik, diniy e`tiqodi, milliy hususiyatlari, an`ana va marosimlarini hurmat qilish; jamiyatda o`rnatilgan odobxloq qidalarga rioya qilish O`z-o`zini rivojlantirish shaxs sifatida doimiy ravishda o`z-o`zini rivojlantirish, ma`naviy va intellektual kamolotga intilish; o`z hatti-harakatini adekvat baholash, o`zini nazorat qila bilish, halollik, to`g`rilik kabi sifatlarga ega bo`lish. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo`lish hamda foydalanish tarixda yil xisobini o`qiy olish, tarixiy darvlarga oid chizmalarni o`qiy olish, rim raqamida yozilgan raqamlarni o`qiy oladi. miloddan avvalgi, era, milodiy yillar o`rtasidagi farqalarni matematik amallar bilan yecha oladi. Fanga oid kompetensiyalar: <ul style="list-style-type: none">• Tarixiy voqeilikni tushunishvauni mantiqiy izchillikda tushuntira olish kompetensiyasi. tarixiy davrlar va -yillarni ajrata oladi, tarixiy hisobini tushuntira oladi; mazkur davrni o`rganish orqali o`quvchilar tarix fanining o`rganilayotgan davriga oid tarixiy atamalar mazmunini biladi; Tarixiy shaxslar haqida ma`lumot bera oladi, tarixiy sanalarda ro`y bergan voqealar haqida ma`lumot bera oladi• Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi. Tarixiy illustrasiyalar asosida kichik hikoyalar tuza oladi, tarixiy joylarni xaritadan ko`rsata oladi

Darsning blok sxemasi:

№	Darsning qismlari	Belgilangan vaqt.
1.	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2.	O`tilgan mavzuni takrorlash	12 daqiqa
3.	Yangi mavzu bayoni	14 daqiqa
4.	Mustahkamlash	12 daqiqa
5.	Baholash	2 daqiqa
6.	Uyga vazifa	2 daqiqa

I. Tashkiliy qism: Salomlashish, davomat aniqlanadi, sinf tozaligi kuzatiladi, o`quvchilar bugunning Jahonda va O`zbekistondagi siyosiy yangiliklari bilan tanishtiriladi.

II. O`tilgan mavzuni takrorlash: O`qituvchi o`tilgan darsni uyga vazifasini tekshiradi, savollar beriladi.

1. Ilk o`rta asrlarda dehqon kim bo`lgan?
2. Erkin ziroatchilar tabaqasi kim deb atalgan?
3. Chokarlar kim bo`lgan?

4. Hozirgi paytgacha Toshkent shahar atroflarida mudofaa inshootlarining xarobalaridan qaysilarini bilasiz?
 5. "Oqtepa"larning qaysi biri yaxshi o'rganilgan?
 6. Yunisobot qo'rg'onida nechanchi asrlarda hayot bo'lgan?
 7. Qadimgi shahar yodgorliklaridan qaysilarini bilaiz?
- Faol o'quvchilar baholanib boradi.

III. Yangi mavzu bayoni: Reja: 1. Xorazm davlatining tashkil topishi

2. Xioniylar davlati. 3. Kidariylar davlati. 4. Eftallar davlati

Zaiflashib borayotgan Qang' davlatidan birinchi bo'lib Xorazm ajralib chiqadi. Uni mahalliy afrig'iylar sulolasiga mansub xorazmshohlar idora qila boshlaydi. III asr o'rtalarida Xorazm davlatining poytaxti dastlab hozirgi Qoraqalpog'iston- ning Ellikqal'a tumanida joylashgan qadimgi Tuproqqal'a sha- har xarobasining o'rnida bo'lgan. Milodiy 305-yilda Xorazmshoh Afrig' o'z qarorgohini Xo- razmning qadimgi Kat shahriga ko'chiradi. Kat qayta tiklanib, Al- Fir qasri ichida shoh o'ziga yangi saroy qurdiradi. Xuddi shu vaqtdan boshlab Xorazmning afrig'iy shohlari oldi tarafiga shoh surati, orqasiga suvoriy tasvirlari tushirilgan kumush tangalar zarb etib, mamlakatning ichki va tashqi savdo munosabatlarini mustahkam o'rnatib oladilar. Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, xorazmshohlar unvoni dastlab siyovushlar sulolasi tomonidan qabul qilingan. Beruniy bu haqda «Siyovush ibn Kayxusravning Xorazmga kelishidan... tarix oldilar. Shu vaqtdan Kayxusrav... turk podsholari (usti-dan) hukmronligini yurg'izgan edi» deb yozgan. O'sha zamonda Kayxusrav, Saksafar, Farasman, Xusrav kabi hukmdorlar «Xorazmshoh» unvoniga sazovor bo'lishgan.

IV asr o'rtalarida O'rta Osiyoga Yetti- suv va Sharqiy Turkistondan ko'chmanchi xion nomli qabilalarning hujumi boshlanadi. Xioniylar 353-yilda o'z hukmdori Grumbat boshchiligida Sug'dga bostirib kiradilar. So'ngra ular Eronda tashkil top- gan va tobora kuchayib borayotgan Sosoniylar davlati bilan to'qnashadilar. Dastlabki janglardayoq sosoniylar shohi Sho- pur II (309-379) xioniylardan yengiladi. So'ngra ular o'rtasida tuzilgan sulh ittifoq orqali mustahkamlanadi. O'rtadagi ittifoq goh buzilib, goh tiklanib turadi. Nihoyat, IV asrning 70- yillarida O'rta Osiyoda xioniylar hukmronligi o'rnatildi. Sirdaryo bo'y- laridan to Amudaryo havzasigacha cho'zilgan keng maydonda xioniylarning kuchli davlati qaror topadi. Bu davlat 120 yildan oshiqroq hukmdorlik qiladi.

«Eftal» degan nom ilk bor «xeptal» shaklida V asr arman man- balarida uchraydi. Bu nom aslida «Eftalon» deb yuritilgan shoh nomidan olingan. Uni Vaxshunvar deb ham ataganlar, u eftal-lar yurishiga boshchilik qilgan. Qisqa vaqt ichida Chag'oniyon, Toxariston va Badaxshon bo'ysundiriladi. Ular bir zarba bilan Sug'dda ham o'z hukmronligini o'rnatadilar. Eftallar davlati ni- hoyatda kuchayadi.

IV. Mustahkamlash: Yangi mavzuni mustahkamlash uchun o'quvchilarga jadval to'ldirish topshirig'i beriladi

Davlatlarning nomi	Hukmronlik yillari	Poytaxti	Hukmdorlari
Xorazm davlati	III-VIII asrlar	Tuproqqal'a, Kat	Afrig'
Xioniylar davlati	370-490-yillar	Yettisuv	Grumbat
Kidariylar davlati	420-456-yillar	Balx shahri	Kidariy
Eftallar davlati	450-550-yillar	Poykand shahri	Vaxshunvar

Jadvalni to'liq to'ldirgan faol o'quvchilar va iqtidorli o'quvchilar baholanadi.

V. Baholash: Darsda faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi.

VI. Uyga vazifa: 2-mavzu savollariga javob yozish.

Mavzuning asosiy mazmunini so'zlab berish.

O'.T.I.B.D.O' _____

Kompetensiya asosida tuzilgan

Yillik dars ishlanmani to'liq olishni istaysizmi?

Bog'lanish uchun:



Tel: + 99890 7269514



E-Pochta: dars-ishlanma@mail.ru



Telegram: @Dars_ishlanma

Dars ishlanmalar moxir o'qituvchilar tomonidan tuzib chiqildi. Dars ishlanmalardan darsning texnologiyasini, metodlarini va kompetensiyalarini o'rganishda foydalaning! Word shaklda beriladi